

KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMI

Iqtisodiyot 4 -bosqich talabasi.

Akbarov Izzatillo Rustambek o'g'li AndMI.

Abdumominov. A .kat.o'qit. AndMI.

Annotatsiya: Bu maqola korxonalari innovatsion faoliyatini rag'batlantirish uchun qanday mexanizmlar va usullar mavzusida ma'lumot beradi. Innovatsion faoliyatning rivojlanishi va korxonalarining yanada yaxshilashishi uchun quyidagi asosiy mexanizmlarni o'z ichiga oladi:

1. Innovatsion loyihalarni qo'llash uchun moliyaviy resurslarni taqsimlash: Korxonalariga innovatsion loyihalarini amalga oshirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash berish. Bu, yangi ideyalarni rivojlantirish, yangi mahsulotlar yaratish va soha bo'yicha rivojlanishni ta'minlashga yordam beradi.

2. Xodimlarni innovatsion yondashuvlar uchun ilg'or qilish: Xodimlarga innovatsion yondashuvlar uchun ilg'or qilish, ularning yangi ideyalarni taklif etish va kompaniya uchun foydali innovatsiyalarni rivojlantirishga imkoniyat beradi.

3. Innovatsion mahsulotlarni bozorga chiqarish: Korxonalar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda innovatsion mahsulotlarni bozorga chiqarish, yangiliklarni ommaviy ko'rsatkichlar orqali namoyish etish va sotishga chiqarish.

4. Yangiliklar va texnologiyalarni kuzatish va korxonalar faoliyatiga integratsiya qilish: Korxonalariga yangiliklar va texnologiyalarni kuzatish, ularga integratsiya qilish va ularni faoliyatlariga qo'llab-quvvatlash orqali innovatsion faoliyatlarini rivojlantirishga yordam berish.

5. Innovatsion faoliyat natijalarini ommaviy ko'rsatkichlar orqali namoyish etish: Korxonalarining innovatsion faoliyat natijalarini ommaviy ko'rsatkichlar orqali namoyish etish, kompaniya imidjini oshirish va innovatsion yondashuvlarni ko'rsatib berishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Yangiliklar va texnologiyalarni kuzatish va ularni korxonalar faoliyatiga integratsiya qilish, xodimlarni innovatsion yondashuvlar uchun ilg'or qilib qo'yish, innovatsion loyihalarni qo'llash uchun moliyaviy resurslarni taqsimlash, hamkorlik va birgalikda yaratilgan innovatsion mahsulotlarni bozorga chiqarish, innovatsion faoliyat natijalarini ommaviy ko'rsatkichlar orqali namoyish etish.

Asosiy qism: Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning asosiy yo'nalishlaridan biri korxonalarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishdir. Bundan ko'zlangan pirovard maqsad-mamlakatning barqaror

iqtisodiy o`rinishini ta`minlash, milliy daromadni oshirish, aholining bandlik darajasini ko`tarish, inflyatsiyani jilovlash, aholining moddiy farovonligi oshirishdan iboratdir.

Korxonaning innovatsion faoliyatini qo`llab-quvvatlovchi va rag`batlantiruvchi texnoparklar, tijorat banklari, axborot-konsalting markazlari, auditorlik firmalari, o`qitish markazlari, baholash kompaniyalari, tovar-xom ashyo birjasining savdo maydonchalari, mikro kredit tashkilotlari, kredit uyushmalari, biznes-inkubatorlar, brokerlik idoralari, lizing kompaniyalari, biznes-inkubatorlar va boshqa tashkilotlarni o`z ichiga olgan innovatsiya infratuzilmasi tashkil etilgan.

Korxonada innovatsiya infratuzilmasining asosiy funksiyasi tadbirkorlik sub`ektlariga u yoki bu turdagi (kerakli ma`lumot bilan ta`minlash, moliyaviy qo`llab-quvvatlash, bino hamda asbob-uskunalar bilan ta`minlash, konsultatsiya berish, kadrlar tayyorlash va hokozalar xizmatlarni ko`rsatishdan iboratdir. Bugungi kunda Korxonada sub`ektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishda innovatsion infratuzilma o`rni ortib bormoqda. Bizning fikrimizcha, Korxonaga xizmat ko`rsatuvchi infratuzilmani tuzishdan asosiy maqsad uning ob`ektlari samarali faoliyat ko`rsatishigina emas, balki ularning faoliyatlarini jamiyat manfaatlari, xususan, tizimli o`zgartirish hamda mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini kengaytirish, ularning raqobatbardoshligini ta`minlash, yangi ish o`rinlarini yaratish uchun yo`naltirishdan iboratdir.

Tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash bo`yicha O`zbekistonda olib borilayotgan siyosat kichik tadbirkorlikni rivojlanishiga, ushbu sohada haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllanishiga zamin yaratdi. Jamiyatda barqarorlikni mustahkamlashda hamda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarda erishilgan yutuqlar ushbu jarayonlarning rivojlanishiga bevosita bog`liqdir. Korxonaning innovatsion faoliyatini qo`llab-quvvatlash jarayonlari asosan quyidagi 3 ta yo`nalishni o`z ichiga oladi:

1. Korxonada sub`ektlarining innovatsion faoliyati uchun etarlicha ishbilarmonlik shart-sharoitlarini va muhitini yaratish.
2. Tadbirkorlik sub`ektlarining innovatsion faoliyatini bevosita rag`batlantirish.
3. Korxonada sub`ektlarining innovatsion faoliyatini o`z vaqtida to`g`ri moliyalashtirish.

Ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulotlarini majburiy standartlashtirish va sertifikatlash tizimi soddalashtirildi, erkinlashtirildi va bu islohotlar davom etmoqda. Ruxsat berish bilan bog`liq bo`lgan ko`pgina funksiyalar takomillashtirildi va soddalashtirildi. Chakana va ulgurji savdo tizimi erkinlashtirildi. Moliya, soliq va statistika hisobotlarining barcha shakllari va muddatlari keskin qisqartirilmoqda. Soliqqa tortish stavkalari unifikatsiya qilindi va kamaytirildi. Nazorat qiluvchi organlarning nazorat va kuzatuv funksiyalariga yondashuv tubdan o`zgardi. Tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan yo`l qo`yilgan qonun buzilishlarni baholash 24 me`zonlari qayta ko`rib chiqilib, tadbirkorlarga nisbatan qo`llaniladigan ko`plab

jarimalar miqdori sezilarli darajada kamaytirildi, ayrim jarima turlari esa butunlay bekor qilindi

Respublika hududlarida axborot-maslahat ta`minoti tizimida Savdo-sanoat palatasi, axborot-maslahat markazlari, biznes-inkubatorlar, biznes-maktablar, idoraviy konsalting tashkilotlari, xususiy konsalting firmalari va o`quv markazlari faoliyat ko`rsatmoqda. Respublikamizda 32 ta biznes-inkubator faoliyat ko`rsatmoqda. Ularning asosiy vazifasi tadbirkorlik sub`ektlari faoliyatini boshlang`ich bosqichida rivojlantirish uchun qulay muhit biznes-inkubatsiya jarayonini tashkil qilish, axborot-maslahat xizmatini ko`rsatish, investitsiya va innovatsiya loyihalarini amalga oshirishga yordam berish, Korxonalar uchun kadrlarni qayta tayyorlash, kasb-xunarga o`rgatishga qaratilgan qisqa muddatli o`quv kurslarini tashkil etishdan iborat.

Korxonalar sub`ektlarining innovatsion faoliyati amaliyotga yangi, zamonaviy va takomillashgan raqobatbardosh ishlab chiqarishni joriy etish, ishlab chiqarish harajatlarning barcha turlarini qisqartirish va mahsulotlar narxlarini kamaytirishni va shu bilan birgalikda ularning iste`mol darajasini va sifatini uzluksiz ravishda oshirib borishni taqozga etadi. Korxonalar sub`ektlarining innovatsion faoliyatini rag`batlantirishdan asosiy maqsad butun ishlab chiqarish tizimini yangilash hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ilmiy-texnik, intellektual va iqtisodiy salohiyatdan foydalanish asosida soha raqobatbardoshligini oshirishdan iboratdir. Bugungi kunda sir emaski, Korxonalar innovatsion faoliyatini rivojlantirish birinchi navbatda ilg`or ilm-fan yutuqlariga asoslanadi. Umuman olganda, mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun ilmiy, iqtisodiy va me`yoriy-huquqiy asoslar mavjud va kadrlar salohiyati ham ma`lum darajada yuqoriligini ta`kidlash mumkin.

Ma`lumki, har qanday innovatsion faoliyatning asosiy negizini ilmiy g`oyalar va ilmiy tadqiqotlar yoki ularning natijalari sifatida yangi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilashga, takomillashtirishga joriy etish jarayonlari tashkil etadi. Korxonalar sub`ektlarining innovatsion faoliyati ham amalda shu jarayonlar bilan bevosita uyg`unlashib ketadi. Ilmiy faoliyat davlat siyosatining eng faol sohasi bo`lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo`lib qoladi. Gap shundaki, ilmiy g`oya bevosita xo`jalik faoliyatida qo`llanilishi mumkin emas. Shuning uchun tashkilotlar tadqiqotlarni moliyalashtirish masalasiga sekinlik bilan yondoshadi, unga katta ehtiyoj sezsa ham. Xozirgi sharoitda davlat biznesni ta`minlanish funksiyasini, aniqrog`i ilmiy bilimlar va g`oyalar bilan ta`minlashni ko`pgina hollarda o`z zimmasiga olmoqda. Aynan shuning uchun ilg`or mamlakatlar rasmiy xujjatlarida ilmiy-texnika taraqqiyoti yagona zanjir tarzida "ilmiy g`oya ta`lim - ishlab chiqarish" tamoyili asosida innovatsiya biznesini keng qullamda qo`llash yoki foydalanish sifatida qaraladi.

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan bizning mamlakatimizda ham ilmiy, fantexnika sohasini tartibga solishni davlat tomonidan amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ilmiy texnika taraqqiyot iqtisodiy o`shishning asosiy manbai hisoblanadi. Ilmiy va innovatsiya sohasida faol ish olib borib davlat bu sohasida o`zining maqsadi, printsipi va siyosatini, shaxsiy ustivorligini shakllantiradi. Ilmiy va innovatsiya siyosati rivojlangan mamlakatlarda odatda mamlakat iqtisodining o`shishda fan va texnikaning ulushini oshirish; moddiy ishlab chikarish sohasida progressiv o`zgarishlarni ta`minlash; jahon bozorida milliy mahsulot raqobat qobiliyatini oshirish; mamlakat mudofasi va xavfsizlikni mustahkamlash; ekologik vaziyatni yaxshilash; tarkib topgan ilmiy maktabni rivojlantirish va saqlab qolish borasida faol ish olib boradi. Davlatning ilmiy va innovatsion faoliyat sohasidagi siyosatida ularni rag`batlantirish masalasi ham muhim o`rin tutadi. Hukumat tomonidan ilmiy va innovatsion faoliyatni rag`batlantirish mexanizmi 2 ta tarkibiy qismdan iboratdir:

- a) bilvosita rag`batlantirish;
- b) bevosita rag`batlantirish.

Davlatning ilmiy va innovatsion faoliyatni bilvosita qo`llabquvvatlash va rag`batlantirish mexanizmi quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- ilmiy-tadqiqot natijalarni amaliyotga joriy etish natijasida olgan foydadan imtiyozli soliq olish;
- ilmiy tadqiqotlar ixtiyorida bo`lgan yordamchi va boshqa mulkdan soliq olishni bekor qilish;
- ilmiy ish olib borish uchun xorijiy mamlakatlardan olib kelinadigan buyumlar uchun to`lovlardan ozod qilish.

Ilmiy va innovatsion faoliyatni bevosita rag`batlantirishda davlat tomonidan beriladigan quyidagi imtiyozlar nazarda tutiladi:

- individual ixtirochilar va kichik joriy etish korxonalarini uchun foizsiz kreditlar berish;
- imtiyozli soliqlar imkoniyati bo`lgan venchur innovatsiya foydani yaratish;
- individual ixtirochilar uchun davlat patent to`lovini kamaytirish;
- resurslarni iqtisod qiluvchi ixtirochilar uchun to`lov muddatini kechiktirish;
- uskunalarni amortizatsiyasini tezlashtirish huquqini berish;
- texnopark va texnopolis tarmoqlarini yaratish. Innovatsiya jarayonlarining yuqorida ko`rsatib o`tilgan bosqichlari va tavsiflari, shuningdek, zamonaviy jamiyatda davlatning iqtisodiy va ijtimoiy o`rni innovatsiyalarni tartibga solish bo`yicha davlat organlari funktsiyalarini belgilab beradi.

Korxonalar sub`ektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish va uni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi quyidagilar orqali tavsiflanishi lozim:

- 1) Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarga mablag`larni to`plash.

- 2) Innovatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish.
- 3) Innovatsiyalarni rag'batlantirish.
- 4) Innovatsiya jarayonlarining huquqiy asoslarini yaratish.
- 5) Innovatsiyalarni kadrlar bilan ta'minlash.
- 6) Ilmiy-innovatsiya infrastrukturasini shakllantirish.
- 7) Innovatsiya jarayonlarini institutsional ta'minlash.
- 8) Innovatsiyalarning ijtimoiy va ekologik yo'naltirilganligini tartibga solish.
- 9) Innovatsiya faoliyatining ijtimoiy maqomini oshirish.
- 10) Innovatsiya jarayonlarini mintaqaviy tartibga solish.
- 11) Innovatsiya jarayonlarining xalqaro jihatlarini tartibga solish.

Keyingi yillarda O'zbekistonda Korxonani rivojlantirishni, ayniqsa uning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish eng dolzab va ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Davlat tomonidan Korxonani faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida uning mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishidagi o'rnini ortib bormoqda. Korxonaning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish deganda, birinchi navbatda hukumat tomonidan Korxonani va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning qabul qilish, davlat organlari tomonidan ularning bevosita ijrosini ta'minlash, turli iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish, moddiy va moliyaviy resurslar orqali qo'llab-quvvatlash tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, Korxonalari innovatsion faoliyatning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish asosan quyidagi 5 ta yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin: ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy-texnologik va huquqiy-siyosiy sohalar bo'yicha. Korxonaning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish nafaqat davlat organlari tomonidan, balki turli nodavlat tashkilotlar, tijorat banklari, milliy va horijiy kompaniyalar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda O'zbekistonda Korxonalari innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish, uning innovatsion faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

- Korxonani va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsion faoliyatini tartibga solishning me'yoriy-huquqiy negizini yanada takomillashtirish;
- tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari va shart-sharoitlarini ta'minlash, ularning ishbilarmonlik va innovatsion faolligini oshirish hamda qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish;
- korxonani sub'ektlari faoliyatini nazorat organlari tomonidan tekshirishlarni tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish, asossiz tekshirishlarga chek qo'yish;

- kichik korxonalarining innovatsiya faoliyatini zaruriy hollarda davlat tomonidan moliyalashtirish, shuningdek xalqaro tashkilotlarning mablag'larini jalb etishda ko'maklashish;

- iqtisodiyot real sektoridagi Korxonalar innovatsiya faoliyatini rag'batlantiruvchi soliq va bojxona imtiyozlarini oshirish va boshqa preferentsiyalarning samarali tizimini shakllantirish va joriy qilish;

- moliya-kredit tizimini takomillashtirish hamda innovatsion faoliyat ko'rsatadigan korxonalar sub'ektlarining kredit manbalari va sarmoyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- korxonalar va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish;

- korxonalar korxonalarining iqtisodiy resurslardan, axborot va innovatsiya texnologiyalardan erkin va to'siqlarsiz foydalanish imkoniyatini kengaytirish, ular tomonidan yaratilayotgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotish tizimini takomillashtirish;

- innovatsiya loyihalari va dasturlarini amalga oshirilishiga mablag'larini sarflayotgan mahalliy va xorijiy investorlarning innovatsiya faoliyatini amalga oshirish va rag'batlantirish uchun imtiyozli sharoitlarni yaratish;

- korxonalar innovatsion faoliyati ko'rsatkichlarining buxgalterlik hisobi va tahlili tizimini yanada takomillashtirish, ular uchun davlat statistika, buxgalteriya va soliq hisobotining soddalashtirilgan tartibini joriy etish;

- innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan Korxonalar uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

- korxonalar sub'ektlarining innovatsion faoliyatini kafolatlash maqsadida sug'urta tizimining ahamiyatini oshirish.

Xulosa

Respublikamizda innovatsion faoliyat xususiyatlarini hamda yirik dunyo kompaniyalari tajribasini o'rganish innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, korxonalar innovatsion rivojlanishiga milliy korxonalarimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan moslashtirishning quyidagi muammolarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1. Respublikamiz korxonalarining izga tushmagan, tizimsiz innovatsion rivojlanishi. Bu esa kompaniya va xoldinglar boshqaruv tizimida innovatsiyalarni boshqarish vazifalarining hamda tegishli tashkiliy tuzilmalarning yo'qligi natijasi hisoblanadi.

2. Innovatsion faoliyatning yuqori tavakkalchilikka asoslanganligi. Bu esa innovatsiyalar sohasidagi davlat siyosatining beqarorligi va takomillashmaganligi bilan bog'liq. Marketing tadqiqotlarini o'tkazish, innovatsion mahsulotga talabni aniqlash, intellektual mulkni himoya qilishda namoyon bo'ladi.

3. Innovatsion rivojlanish tizimini ishlab chiqish o`rniga xoldinglar, kompaniyalar, korxonalar mulkdorlari, yuqori rahbariyati tomonidan bir martalik rekonstruksiyalar va tarkibiy o`zgarishlarning ustuvor qo`llanilishi. Bu esa mulk egalari va top-menejerlarda zarur malaka va innovatsiyalarni boshqarish uslubiyati bo`yicha ko`nikmalarning yo`qligi natijasi hisoblanadi.

4. Korxonalar xodimlari tomonidan innovatsiyalarga kuchli qarshilik qilish. Bu esa innovatsiyalarga xos bo`lgan mavhumlik, bunday sharoitda o`z vazifa va mas`uliyatlarini aniq bilmaslik, noaniqliklarga nisbatan korxonalar xodimlarining qo`rquvi, himoya choralarining yo`qligi.

5. Ichki bozor uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi ko`pchilik respublikamiz yirik korxonalar tomonidan ichki bozorga yo`naltirilgan innovatsiyalarga etarlicha e`tibor bermaslik. Bunda eksportga mahsulot chiqaruvchi korxonalar o`zini raqobatbardoshlik darajasini saqlab turish uchun innovtsiyalarni majbur qo`llaydilar.

6. Mulkdorlar va menejerlar tomonidan muqobil xarajatlarni yoki boy berilgan naflarni hisoblashning, korxonani jadal rivojlantirish amaliy tajribasining yo`qligi sababli yangi texnologiyalarni joriy qilishdan oldingi qo`llanilayotgan an`anaviy texnologiyalarni ustuvor himoya qilish.

7. Tizimli jarayon sifatida korxonalar barcha jihatlarini o`z ichiga oluvchi, innovatsion rivojlanish deganda esa ilmiy-texnik rivojlanishni, tor ma`noda esa deganda faqat mahsulot va texnologik innovatsiyalarini tushunish sababli innovatsion rivojlanishga etarli e`tibor bermaslik. Umuman olganda milliy korxonalarimiz tomonidan innovatsiyalarni faollashtirishga etarlicha e`tibor berilmayotganligi sababli, ko`pchilik holatlarda korxonalar innovatsiyalarni amalga oshirishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Respublikamiz korxonalarining innovatsion rivojlanishi, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga moslashishining asosiy muammolari, xususiyatlari va tendentsiyalari tahlili korxonalarini raqobatbardoshligini oshirib, ularning faoliyat samaradorligini, innovatsion rivojlanishini boshqaarishni takomillashtirish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

1. Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti va aholifarovonligini ta`minlash: yutuqlar, tendentsiya va istiqbollor. Ilmiy-ommabop risola. prof.B.Begalovning umumiy tahriri ostida. -Toshkent.: TMI,2016 yil. B.18.

2. O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlari (2012-2018 yillar).

Internet ma`lumotlari

1. <http://www.sba.gov>

2. www.extech.ru

3. www.dn.kz

4. www.spprinfo.ru